

**ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG IJODIYOTIDA
VATAN MAVZUSINING O'RNI**

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universitet Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg o'zbek xalqining asl, mard o'gloni. Shoir asli rossiyalik bo'lsa ham O'zbekistonni chin qalbdan sevgan, har bir asarida uning ta'rifini keltirishdan charchamagan. O'zbek adabiyotida hech qaysi ijodkor o'z ijodiyotida Faynbergchalik ko'p Vatan mavzusiga murojaat qilib, shu mavzuda asar yaratmagan bo'lsa kerak. Bizga ma'lumki, ijodkor asosan nazm yo'nalishida qalam tebratgan. Shunday bo'lsa-da, uning nasr, ssenariynavislik sohasida ham talay asarlari mavjud. Vatan mavzusi uning ko'pchilik asarlariga sarlavha bo'lgan yoki hech bo'lmaganda asarning asosiy g'oyaviy markazi bo'lgan va Faynberg bu asarlarda O'zbekistonni o'z Vatani sifatida e'tirof etadi. Shoir hayoti va ijodi O'zbekiston zamin bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u asarlarida bu zaminni samimiy muhabbat, chuqur hurmat va falsafiy mushohada bilan tasvirlaydi. Uning ijodiyotida Vatan tushunchasi milliy chegaralardan chegroq ma'no kasb etib, insonning ruhiy mansubligini, tarixiy xotirasini, ma'naviy tanlovini ifodalovchi badiiy konsepsiyaga aylanadi. Vatanim deya O'zbekiston haqida asar yozar ekan, uni shunchalar iliq, samimiy, mehrlil ohangda tasvirlaydiki, asarni o'qigan har bir o'zbek farzandi g'ururlanadi, Faynbergga nisbatan hurmatini bildiradi. Ushbu maqola Aleksandr Arkadevich Faynberg ijodiy yo'lida Vatan mavzusi va uning ahamiyatini ochib beradi.

Abstract: Alexander Arkadyevich Feinberg is a true, brave son of the Uzbek people. Although the poet was originally Russian, he loved Uzbekistan with all his heart and never tired of describing it in each of his works. Perhaps no other writer in Uzbek literature has addressed the theme of the Motherland as much as Feinberg and created works on this topic. As we know, the author mainly wrote in the field of poetry. However, he also has many works in the field of prose and screenwriting. The theme of the Motherland was the title of most of his works or at least the main ideological center of the work, and Feinberg recognizes Uzbekistan as his Motherland in these works. The poet's life and work are closely connected with the land of Uzbekistan, and in his works he describes this land with sincere love, deep respect and philosophical observation. In his work, the concept of Homeland acquires a meaning beyond national borders and becomes an artistic concept that expresses a person's spiritual belonging, historical memory, and spiritual choice. When he writes a work about Uzbekistan called My Homeland, he describes it in such a warm, sincere, and affectionate tone that

every Uzbek child who reads the work feels proud and expresses respect for Feinberg. This article reveals the theme of Homeland and its importance in the creative path of Alexander Arkadyevich Feinberg.

Аннотация: Александр Аркадьевич Файнберг — истинный, храбрый сын узбекского народа. Хотя поэт был русским по происхождению, он всем сердцем любил Узбекистан и неустанно описывал его в каждом своем произведении. Возможно, ни один другой писатель в узбекской литературе не обращался к теме Родины так глубоко, как Файнберг, и не создавал произведений на эту тему. Как известно, автор в основном писал в области поэзии. Однако у него также много работ в области прозы и сценарного мастерства. Тема Родины была названием большинства его произведений или, по крайней мере, главным идеологическим центром творчества, и Файнберг признает Узбекистан своей Родиной в этих произведениях. Жизнь и творчество поэта тесно связаны с землей Узбекистана, и в своих произведениях он описывает эту землю с искренней любовью, глубоким уважением и философскими размышлениями. В его творчестве понятие Родины приобретает смысл за пределами национальных границ и становится художественным понятием, выражающим духовную принадлежность человека, историческую память и духовный выбор. Когда он пишет произведение об Узбекистане под названием «Моя Родина», он описывает её в таком тёплом, искреннем и нежном тоне, что каждый узбекский ребёнок, читающий это произведение, испытывает гордость и уважение к Файнбергу. Эта статья раскрывает тему Родины и её значение на творческом пути Александра Аркадьевича Файнберга.

Kalit so'zlar: Vatan konsepsiyasi, vatanparvarlik, poetik tafakkur, lirik qahramon, ruhiy mansublikbadiiy obraz, ramziylik, ma'naviy qadriyat, "Ona shahrim-Toshkentim", "Vatan" she'ri, Abdulla Oripov, rus shoiri.

Keywords: Concept of homeland, patriotism, poetic thought, lyrical hero, spiritual affiliation, artistic image, symbolism, spiritual value, "My hometown-Tashkent", poem "Homeland", Abdulla Oripov, Russian poet.

Ключевые слова: Понятие родины, патриотизм, поэтическая мысль, лирический герой, духовная принадлежность, художественный образ, символизм, духовная ценность, «Мой родной город — Ташкент», стихотворение «Родина», Абдулла Орипов, русский поэт.

Aleksandr Arkadevich Faynberg 1939-yil 2-noyabrda Toshkent shahrida tavallud topgan. Shoir asli rossiyalik bo'lgan. Qatag'on olovi alanga olgan paytlarda uning otanasi O'zbekistonga keladishadi va o'sha paytlarda shoir tug'iladi.

Faynberg O'zbekistonni Vatanim deb tan olgan, uning uchun o'zga yurtlar begona u faqat shu zaminga mehr qo'yib, har ashorini shu yer, uning insonlari, ularga

xos bo'lgan fazilatlar, milliy uruf-odatlar, tabiati haqida yozadi. U Vatan, xususan O'zbekiston haqida juda ko'p asarlar bitgan. "Ona shahrim-Toshkent" nasriy asari mana shunday ijodkor mehri yo'g'irilgan durdonalardan biri sanaladi. U mazkur asarida quyidagi fikrni yozgan: "Men Rossiyaning poytaxtiga mehmon bo'lib kelganman. Mana, u bamisoli kaftimning ustida turgandek butun borlig'i bilan ko'rinmoqda. O'n sakkizinchi qavat derazasidan ushbu shaharning ufqqa cho'zilib ketgan tarxiga boqaman va ichichimdan o'kinaman. O'kinaman, o'ksinaman! Bu shahar revolvutsiya yillarida mening yolg'izgina onamni Magadan ostonasiga uloqtirib yuborgan edi. Ko'p yillar o'tgandan so'ng faqatgina Toshkent uni o'z bag'riga oldi va ellik darajali sovuqlarda qolga vujudni mehr bilan isitdi."

Faynberg o'zining O'zbekistonda, tug'ilishi, shu yerda o'sib ulg'ayishini taqdirning eng katta hadyasi deb biladi. Shoirning fikricha agar uning ota-onasi o'sha paytlari Toshkentga ko'chib kelishmaganida, balki u umuman tug'ilmagan bo'lardi. Chunki shoir Ikkinchi Jahon urushi boshlangan yillarda tug'ilgan. Manas shu sababdan ham shoir O'zbekistonni Vatanim deya jondan sevadi, unga nisbatan mehr-muhabbatini ishor etishdan, bu dil ishorlarini qog'ozga tushirishdan charchamaydi.

"Vatan" she'rida ham Faynberg O'zbekiston zaminini, uning odamlarini, ruhini samimiy kuylagan. Bu she'rda faqatgina shoirning Vataniga bo'lgan muhabbati tasviri emas, balki ongli tanlov, ruhiy e'tirof va hayotiy tajribaning poetic xulosasi berilgan. Asarda yurtga bo'lgan muhabbat shunchaki romantik tuyg'u emsa, qadamma-qadam kezilganda, ter bilan ko'zdagi yoshlar bilan his etiladigan muqaddas makon sifatida ta'riflaydi.

VATAN

Quyoshli, to'rtburchak dalalardan to
Tizma tog'largacha cho'zilgan Vatan –
Yo'llarning girdida bo'lib girgitton
Gumbazdek teraklar turarlar qator.
Dalalarni kezdin qadamma-qadam,
Teodolit ko'tarib, o'lchadim tanob.
Loysuvoq uylarda simirdim chalob,
Eshiksiz hovlilar ochiqdir mudom.
Mushfiq yurt. Shu yerda nasl-u nasabim –
O'zbekistondadir xokim, turobim.
Hoy, Yevropa! Seni tanimayman ham.
Mag'rur parvoz etar burgut falakda.
O't tishladim. Labda sho'r ko'z yosh. Bu dam
ham dardni, ham baxtni tuydim yurakda.

Bilamizki, shoit geodeziya bilim yurtida tahsil olgan. U yerda ijodkor tanobchi, ya'ni yer o'lchovchi mutaxassisligini oladi. Kasbi taqozo qilgani sababli

mamlakatimizning turli burchaklariga borib yer o'lhagan."To'rtburchak dalalar", "gumbazdek teraklar" shoirning kasbidan kelib chiqqan holda tabiat go'zalligini his qilishning o'ziga xos usuli. Yuqorida biz shoir ko'p tabiat bag'rida ishlaganini ta'kidlagandik, "Dalalarni kezdim qadamma qadam, Teodolit ko'tarib, o'lchadi tanob" misralari ayni shu fikr isbotidir. Ish bilan yurar ekan u borgan qishloqdagi qalbi qaynoq, tanti odamlar uni quchoq olib kutib olishadi. Shoir ular bilan uylarida samimiy, mehrlilarni o'tkazadi: "Loysuvoq uylarda simirdim chalob, Eshiksiz hovlilar ochiqdir mudom". Bu yerda o'zbek qalqiga xos milliy urf-odat, ya'ni qishloqlarda eshiklar qulflanmasligi yoki umuman darvoza o'rnatilmasligini va "loysuvoq devorlar" ta'rifi bilan an'anaviy qishloq uylari tasvirini ko'rishimiz mumkin. Shoir asardagi tasvirlar chizgisi, ketma-ketligi bilan o'quvchi tasavvurida o'zbek xalqini shunday shakllantiradiki, yurtimizga hali umri mobaynida biror marta tashrif buyurmagan inson bu insoniylikni faqat o'qigan bo'lsa ham mahliyo bo'ladi. Dunyoda o'zbek xalqidek saxovat, ishonch, saqodat, mehmondo'stlik kabi oliyjanob fazilatlar bilan hurmat qozongan. Ta'kidlangan xususiyatlar faqat o'zbek xalqiga xos noyob, bunday xalq oldida Yevropa hech kim emas, deydi shoir. "Mushfiq yurt. Shu yerda nasl-u nasibim-, Ozbekistondadir hokim, turobim" deb aytib, Faynberg o'zini shu Vatanning ajralmas bir bo'lagi, dilbandi ekanligini, u yerda dunyoga kelib, uni bor-u yo'g'i shu zamindar ekanligini, uning ildizi-nasli mana shu tuproqda ekanligini e'tirof etadi. "Hoy, Yevropa! Seni tanimayman ham" misrasi orqali shoir to'g'ri men o'zbek emasman, lekin O'zbekiston mening yagona Vatanim, mening uchun bu yerlardek hech qayer aziz, mo'tabar bo'lolmaydi, shu yer, shu xalq bergan mehrni menga boshqa hech bir yoqda berishmaydi degan mulohazani dangal ilagari suradi.

Aleksandr Faynbergning ota-onasi Toshkentga ko'chib kelgan yillarda ko'pchilik rus adabiyotining taniqli namoyondalariga ham Toshkent boshpana bo'ladi. Shoir bu haqida quyidagicha deydi: "Mening jonjon shahrim - ona Toshkentim o'sha yillarda, eh-he, xonadonlarga urush o't qo'ygan yana qanchadan qancha odamlarning jonini saqlab qolmadi deysiz. 1937-yilda bu yerga ko'chib kelishgan va 1939-yilda meni dunyoga keltirishgan ota-onam haqida gapirmasam ham bo'ladi..." Ammo mana shu ma'lumotdan keyin Aleksandr Faynberg shaxsiga ehtiromni kuchaytiradigan jihat shundaki, Abdulla Oripovning so'zlarida aytilgani kabi Faynbergdan boshqa hech qaysi rus shoiri O'zbekistonni Vatanim deb, u haqda asarlar bitmagan, mehrini madh etmagan.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Arkadevich Faynberg ijodiyotida Vatan mavzusi tasodifiy motiv emas, balki shoirning butun poetikasini bir butun qilib umumlashtirib turuvchi markaziy tayanch g'oyadir. Ijodkor asarlarida Vatan tor ma'noda, ya'ni inson tug'ilgan joyni ta'riflash uchun emas, falsafiy-ma'naviy mazmun kasb ettirish uchun xizmat qiladi. Bu degani uning uchun Vatan inson istiqomat qiladigan makonning o'zigina emas, inson ruhi shakllanishi uchun xizmat qilgan joy

hamdir.

Faynberg ijodidagi Vatan mavzusining o'ziga xosligi shundan iboratki, u bergan ta'riflari balandparvoz shiorlar emas, qalbdan qaynab chiqqan, eng samimiy, ichki iztiroblarga to'la, hayotiy aniqliklarni o'z ichiga olgan tasvirlardir. Shoir uchun Vatan-mehnat bilan anglanadigan, mashaqqat bilan his etiladigan, qalb bilan tasdiqlanadigan haqiqat. Uning poetik dunyosida Vatan tuyg'usi dard, baxt, g'urur, kamtarlik, iztirob, sadoqat kabi turli tuyg'ular qarama-qarshiligining uyg'unligida tasvirlanadi. Aleksandr Arkadevich Faynbergning O'zbekistonga, Vatanga bo'lgan muhabbati har bir zamonaviy o'zbek farzandiga namunadir. Globalizatsiya kuchayib borayotgan asrimizda yosh avlod qalbida milliy g'urur, an'analar, Vatanga nisbatan sadoqat tuyg'ularini tarbiyalash ehtiyoji tug'ilmoqda. Agar o'sib kelayotgan yosh avlod Faynberg kabi ijodkorlar hayotini o'rgansa, asarlarini sevib o'qisa, bunday yangicha tarbiyaviy choralarga ehtiyoj bo'lmaydi. Ijodkor hayoti bilan tanishishning o'zigina ularda iftixor uyg'otib, milliy g'urur nima, Vatanga muhabbat nima ekanligi bu so'zlarni o'qimasdan ham anglab, o'rganib oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH BO'YICHA Dasturiy va uslubiy qo'llanma. Toshkent-2020
2. <https://ilmlar.uz/faynberg-aleksandr-arkadevich-hayoti-va-ijodi/>
3. Aleksandr Faynberg. – T.: Ijod nashr, 2021.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
5. <https://arboblar.uz/uz/people/faynberg-aleksandr-arkadevich>
6. n.ziyouz.com